

O‘zbekiston Respublikasi  
Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza  
qilish davlat qo‘mitasi raisining  
2022 yil 28 sentyabrdagi 450 -son  
buyrug‘iga  
1-ilova

## **O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha siyosati**

### **1 bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Siyosat O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari (keyingi o‘rinlarda – Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari)da halollik siyosatini ta‘minlash, ya‘ni xodimlar va umuman jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyatini oshirish maqsadida yuksak xulq-atvor standartlariga muvofiqlik, shuningdek lavozim (xizmat) majburiyatlarini bajarish chog‘ida Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari xodimlari tomonidan korrupsiyaviy harakatlar sodir etilishiga yo‘l qo‘ymaslikka doir pozitsiyasini ifodalaydi.

2. Ushbu Siyosat O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi O‘RQ-419 son Qonuni talablari, 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari PF–5729-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–6013-son, 2021-yil 16-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta‘minlash, shuningdek jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–6247-son, 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6257-son, 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–5177-son Qarori, Vazirlar Mahkamasining “Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida” 2016-yil 2-martdagi 62-son Qaroriga muvofiq korrupsiyaga qarshi kurash

sohasidagi xalqaro tashkilotlar tavsiyalari va ilg'or dunyo tajribasi, jumladan ISO 37001:2016 "Korrupsiyaga qarshi kurash menejmenti tizimi – Talablar va ularni qo'llashga doir tavsiyalar" xalqaro standarti talablari va tavsiyalarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

3. Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari ushbu Siyosatni o'z faoliyati ahamiyatini hisobga olgan holda qabul qilishlari, korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini ishlab chiqadi va joriy etadi.

4. Quyidagilar Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy maqsadi hisoblanadi:

Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari xodimlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunlari va korrupsiyaga qarshi kurashishga doir ichki hujjatlar talablarini tushunish va ularga rioya etilishi;

Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish va korrupsiyaga barham berish;

Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarining barcha faoliyat sohalarida korrupsiyaning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

aholining Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarining faoliyati yuzasidan huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari xodimlari faoliyatining shaffofligi va xulq-atvor me'yorlariga muvofiqligini ta'minlash;

korrupsiyaviy harakatlarni o'z vaqtida aniqlash, ularga barham berish, ularning oqibatlari, ularni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaviy harakatlarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi tamoyilini ta'minlash;

Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarida mavjud korrupsiyaga barham berish.

5. Mazkur Siyosat talablari egallab turgan lavozimi va bajarayotgan funksiyasidan qat'iy nazar Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarining barcha xodimlari uchun birdek amal qiladi.

6. Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlariga ishga kirayotgan har qanday shaxs mazkur Siyosat bilan imzo chekkan holda tanishishlari, uning qonun-qoidalariga rioya qilishi shart.

7. Mazkur Siyosatning maqsadlari uchun quyidagi asosiy tushunchalar va atamalardan foydalaniladi:

**aloqador shaxslar** – Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari xodimi bilan tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida ishtirok etadigan shaxslar, aksiyalari Respublika fond birjasida ommaviy muomalada bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarining besh foizidan kam bo'lgan miqdordagi aksiyaga ega

ekanligi bundan mustasno;

**davlat organlari va muassasalari** – davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari (jumladan, vazirliklar, xizmatlar, agentlik, markazlar va b. idoralar) va ularning tarkibiy bo‘linmalari, shuningdek davlat tomonidan bevosita yoki bilvosita nazorat qilinadigan yuridik shaxslar;

**ish faoliyati yuzasidan mehmondo‘stlik belgilari** – uchinchi shaxslarning hamkorlik o‘rnatish va/yoki uni qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq bo‘lgan, Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari xodimlarining sodiqligini oshirishga qaratilgan, xodimlari manfaatlari yo‘lidagi xarajatlari, jumladan uchinchi shaxslarning ovqatlanishi, ish faoliyati yuzasidan tushliklar tashkil etilishi bilan bog‘liq xarajatlari, transport xarajatlari, yashash, ko‘ngilochar tadbirlar, jumladan sayohat dasturlari bilan bog‘liq xarajatlar va h.k.;

**kontragent** – Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishgan (mehnat munosabatlari bundan mustasno) har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs;

**korrupsiya** – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

**korrupsiyaviy xavf-xatar** – Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari xodimlari yoki uchinchi shaxslar tomonidan Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari nomidan yoki ularning manfaatlari yo‘lida korrupsiyaviy harakatlarni amalga oshirish xavfi;

**korrupsiyaviy harakatlar** – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo‘lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo‘lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog‘oz, boshqa ko‘rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy xarakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o‘z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

**korrupsiyaviy huquqbuzarlik** – sodir etilganlik uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida javobgarlik belgilab qo‘yilgan korrupsiya alomatlariga ega xatti-harakat;

**korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat bo‘limi** – Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish vazifasi yuklangan tarkibiy tuzilma;

**korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi** – korrupsiyaviy harakatlarning,

O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchiligi hamda Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga doir ichki hujjatlari buzilishining oldini olish, Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari xodimlari tomonidan o‘z faoliyatini professional va xulq-atvor jihatdan yuksak darajada amalga oshirilishini ta‘minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar;

**kronizm** – (favoritizmning do‘stona aloqalarga asoslangan ko‘rinishi) – do‘stlar yoki ishonchli shaxslarga noqonuniy imtiyozlar taqdim etish maqsadida hokimiyat va/yoki obro‘sidan foydalanish;

**mansabdor shaxs** – doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat bo‘yicha tayinlanadigan yoki saylanadigan, hokimiyat vakili vazifalarini bajaradigan yoxud davlat organlarida, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida, mulk shaklidan qat’i nazar, korxonalarda, muassasalarda, tashkilotlarda tashkiliy-boshqaruv, ma‘muriy-xo‘jalik vazifalarini amalga oshiradigan va yuridik ahamiyatga ega harakatlarni sodir etishga vakolat berilgan shaxs, xalqaro tashkilotda yoxud chet davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, ma‘muriy yoki sud organida mazkur vazifalarni amalga oshiruvchi shaxs.

**manfaatlar to‘qnashuvi** – Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari xodimining shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta‘sir ko‘rsatayotgan yoxud ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat;

**mahalliychilik** – mahalliy manfaatlarinigina ko‘zlab ish tutish. Bunda, shaxsni uning nasliy kelib chiqishi (asilzoda yoki mashhur sulola vakili ekanligi va u jamoatchilik tomonidan e‘tirof etilganligi) hamda yaqin qarindoshlarining egallab turgan xizmat mavqe sababli, uning lavozimga qo‘yiladigan malaka talablariga mos kelish-kelmasligini hisobga olmagan holda ishga qabul qilish, rotatsiya qilish va lavozimga tayinlash;

**nepotizm** – (tanish-bilishchilik, qarindosh-urug‘chilik; favoritizmning qarindoshlik rishtalariga asoslangan ko‘rinishi) - o‘zining yaqin qarindoshlari yoki do‘stlariga noqonuniy imtiyozlar berish maqsadida hokimiyatdan foydalanish va (yoki) ta‘sir o‘tkazish, shuningdek, yaqin qarindoshlari va (yoki) do‘stlariga asossiz mukofotlar hisoblash, Tashkilot manfaatlari zarariga, yaqin qarindoshlari va do‘stlarini ishga qabul qilish va lavozimga tayinlashlar;

**rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlar** – belgilangan tartib-taomillar yoki harakatlarni sodir etish bilan bog‘liq standart tartiblar amalga oshirilishini ta‘minlash yoki tezlashtirish maqsadida tegishli qonunchilik va

normativ me'yorlar hamda qoidalarda ko'zda tutilmagan noqonuniy ravishda taqdim etiladigan pul mablag'lari, mol-mulk, mulkiy huquqlar, xizmatlar hamda boshqa moddiy va nomoddiy foyda;

**urug'-aymoqchilik** – Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari xodimining avlod-ajdodlari bir bo'lgan, bir sulolaga mansublik asosida uchinchi shaxslarga nisbatan sub'ektiv, imtiyozli va noxolis munosabat shaklidagi shaxsiy manfaatdorligi;

**favoritizm** – Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari xodimi boshqa shaxs va/yoki shaxslar guruhi manfaatlariga qaraganda bitta shaxs va/yoki shaxslar guruhi manfaatlariga ustuvor ahamiyat qaratishi, Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarida kadrlarni tanlash va joylashtirish, lavozimini ko'tarish, mukofot puli berish va davlat mukofotlariga tavsiya etish, ta'til berish yoki sihatgohlar va xorijiy safarlarga yuborish, murojaatlar, shuningdek ish va navbatchilik jadvallarini ko'rib chiqishda ketma-ketlikni yo'lga qo'yish bilan bog'liq vaziyatlarda tartiblarga rioya qilmaslik.

**xayriya (xayriya yordami)** – yuridik va jismoniy shaxslar (xayriya qiluvchilar)ning tashkilot uchun bepul yoki imtiyozlar asosida moddiy va/yoki nomoddiy boyliklar, xususan, pul mablag'lari shaklidagi boyliklarni topshirish, ular uchun ma'lum ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish va xayriya maqsadlaridagi boshqa qo'llab-quvvatlashlarni taqdim etishda namoyon bo'ladigan ixtiyoriy beg'araz yordami;

**xalqaro tashkilot** – davlatlar, hukumatlar yoki boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan tashkiliy shakli va vakolatlaridan qat'iy nazar tashkil etilgan har qanday xalqaro tashkilot, jumladan, masalan iqtisodiy integratsiya bo'yicha mintaqaviy tashkilotlar.

**xodim** – Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari bilan mehnat munosabatlariga kirishgan jismoniy shaxs;

**homiylilik (homiylilik yordami)** – yuridik va jismoniy shaxslar (homiylar) tomonidan Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari (homiylilik qilinayotgan muassasalar)ga ular uchun ishlar bajarib berish, xizmatlar ko'rsatish va xayriya maqsadlarida boshqa turdagi yordamlarni ko'rsatish, mol-mulk, jumladan pul mablag'lari taqdim etish bilan ifodalanadigan yordami hisoblanib, ularning natijasida Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari muassasalarida homiy oldida o'zaro majburiyatlar yuzaga keladi;

**shafelik** – Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari xodimining lavozimi yuqoriroq bo'lgan boshqa xodim tomonidan qulay mehnat sharoitlarini yaratib berish shaklidagi himoyasi, uni yoqlab yonini olishi;

**yaqin qarindoshlar** – bir-biriga qarindoshlik yoki yaqin aloqasi bor shaxslar, ya'ni ota-ona, tug'ishgan hamda tutingan aka-ukalar va opa-singillar,

er-xotin, farzandlar (jumladan asrab olingan farzandlar), buvalar, buvilar, nabiralar, shuningdek er (xotin)ning ota-onasi, tugʻishgan va tutingan aka-ukalari va opa-singillari.

## **2 bob. Korrupsiyaga qarshi kurashishning muhim tamoyillari**

8. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimi quyidagi tamoyillar asosida tashkil etiladi va faoliyat yuritadi:

**qonuniylik** – Qoʻmita, uning hududiy boʻlinmalari va tizim tashkilotlaridagi korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha chora-tadbirlar Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq davlat organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha ilgʻor dunyo tajribasi, shuningdek Qoʻmita, uning hududiy boʻlinmalari va tizim tashkilotlari ichki hujjatlariga qatʻiy rioya qilgan holda amalga oshiriladi;

**korrupsiyaga nisbatan murossasizlik (toqatsizlik)** – Qoʻmita, uning hududiy boʻlinmalari va tizim tashkilotlarining faoliyatining barcha sohalarida korrupsiyaning har qanday shakllari va koʻrinishlariga murossasiz (toqatsiz) munosabatda boʻladi. Qoʻmita, uning hududiy boʻlinmalari va tizim tashkilotlari xodimlariga korrupsiyaviy xavf-xatar kelib chiqishi mumkin boʻlgan faoliyatda bevosita yoki bilvosita ishtirok etish qatʻiyan taqiqlanadi;

**ochiqlik va shaffoflik** – Qoʻmita, uning hududiy boʻlinmalari va tizim tashkilotlari xodimlari va kontragentlari, keng jamoatchilikni Qoʻmita, uning hududiy boʻlinmalari va tizim tashkilotlarida qabul qilingan va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar toʻgʻrisida xabardor qilish (maxfiylik va xizmat siri toʻgʻrisidagi qonun hujjatlari talablarini hisobga olgan holda);

**korrupsiyaga qarshi amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning preventiv xususiyatga ega boʻlishi, tizimlilik va yaxlitligi** – korrupsiyaning oldini olish, korrupsiyaviy harakatlarning sodir etilishiga xizmat qiluvchi sabab va shart-sharoitlar hamda korrupsiyaviy xatarlarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishning ustuvorligi. Korrupsiyaga qarshi joriy etilayotgan chora-tadbirlar va tartib-taomillar aniqlangan xavf-xatarlar darajasiga mos kelishi va Qoʻmita, uning hududiy boʻlinmalari va tizim tashkilotlarining barcha funksiyalari va yoʻnalishlarini qamrab olgan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimiga birlashtirilishi;

**korrupsiya bilan bogʻliq huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning muqarrarligi** – korrupsiya bilan bogʻliq huquqbuzarliklarni sodir etgan Qoʻmita, uning hududiy boʻlinmalari va tizim tashkilotlari xodimlari oʻzining mavqe va egallab turgan lavozimidan qatʻiy nazar Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda Qoʻmita, uning hududiy boʻlinmalari va tizim tashkilotlarining ichki hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi;

**ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlari va axborot texnologiyalaridan**

**foydalanish** – Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari korrupsiyaga qarshi kurash tizimini shakllantirishda ilm-fan taraqqiyotining so‘nggi yutuqlaridan, shu jumladan, integratsiyalashtirilgan axborot-kommunikatsiya tizimlaridan keng foydalanishga intiladi;

**to‘g‘ridan-to‘g‘ri rahbariyatga murojaat qilish** – Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining har bir xodimi korrupsiyaviy harakat sodir etilganligiga doir ishonchli va asosli ma‘lumotlar mavjud bo‘lganda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining ichki hujjatlarida ko‘zda tutilgan chora-tadbirlarni qabul qilish uchun hududiy boshqarma yoki uning tasarrufidagi muassasa rahbari hamda tashkilot rahbariga hech qanday to‘siqsiz murojaat qilishi mumkin;

**fuqarolik jamiyati vakillari bilan o‘zaro hamkorligi** – Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari o‘ziga yuklatilgan funksiyalarni bajarishda ularning faoliyati ustidan mustaqil va xolis nazoratni amalga oshirish maqsadida fuqarolik jamiyati vakillarini jalb qiladi;

**monitoring, tahlil va baholash:** Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari davriy asosda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi faoliyati monitoringi va tahlilini amalga oshiradi, shuningdek uning samaradorlik va natijadorlik ko‘rsatkichlarini baholaydi.

**korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini doimiy ravishda takomillashtirish** – korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini monitoring va nazorat qilish hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish maqsadida Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini to‘xtovsiz ravishda oshirish choralari ko‘riladi.

### **3 bob. Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy yo‘nalishlari**

#### **1-§. Manfaatlarni to‘qnashuvini boshqarish**

9. Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari xodimlari o‘z lavozim majburiyatlarini halol va vijdonan bajarishi, o‘z mansab va xizmat mavqeidan va Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari tasarrufidagi mol-mulklardan shaxsiy manfaatdorlik yo‘lida foydalanmasligi va manfaatlar to‘qnashuviga olib kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlardan saqlanishi lozim.

10. Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari xodimlari ishga qabul qilinayotganda, lavozimi ko‘tarilayotganda va rotatsiya qilinayotganda har yili va tegishli vaziyatlar/shart-sharoitlar yuzaga kelishiga qarab manfaatlar to‘qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan shaxsiy manfaatdorligiga doir axborotni ochiqlashi lozim.

11. Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari xodimlari tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi va uni tartibga solishga doir axborotni ochiqlash jarayoni Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish tartibi to‘g‘risida ichki idoraviy hujjatda belgilab qo‘yiladi.

12. Manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash uchun samarali nazorat tartib-taomillari Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari xodimlarining uchinchi shaxslar bilan o‘zaro aloqasi ro‘y beradigan barcha funksiyalarga joriy etilishi lozim (masalan, tanlov savdolarini tashkil qilish, reytinglarni hisoblash va h.k.).

## **2-§. Ish yuzasidan sovg‘alar va mehmondo‘stlik belgilarini qabul qilish**

13. Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari xodimlariga o‘z xizmat majburiyatlarini bajarishi doirasida jismoniy va yuridik shaxslardan sovg‘alar mehmondo‘stlik belgilari, jumladan qarz, kafolatlar, kafillik, mukofot, moddiy yordam, naqd pulsiz va naqd pul mablag‘lari yoki ularning ekvivalentlari, qimmatbaho qog‘ozlar, kriptovalyuta, boshqa moddiy qadriyatlar yoki xizmatlar ko‘rinishidagi rag‘bat vositalarini olish taqiqlanadi.

Bunda, konferensiyalar, seminarlar va turli shu kabi uchrashuvlarda taqdim etiladigan umumiy qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravaridan oshmaydigan buyumlar bundan istisno hisoblanadi.

14. Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarida ichki korrupsiyaning oldini olish maqsadida xodimlar o‘rtasida xizmat majburiyatlarini qabul qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan va xodim shaxsi bilan bog‘liq deb e‘tirof etilgan sovg‘alarni berishda quyidagilarga rioya qilinadi:

sovg‘a oluvchi uchun manfaatlar to‘qnashuvi vaziyatini keltirib chiqarmasligi va sovg‘a beruvchi oldida biror-bir majburiyatlarni yuzaga keltirmasligi lozim;

sovg‘a ochiq-oydin beriladi, sovg‘a berilayotgani yashirilmaydi;

sovg‘ani faqat umum e‘tirof etilgan bayramlar (tavallud ayyomi, farzand tug‘ilishi, Vatan himoyachilari kuni, Xalqaro xotin-qizlar kuni, Yangi yil va h.k) munosabati bilan berishga ruxsat etiladi;

sovg‘alar Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining kamida uchta xodimi ishtirokida berilishi lozim;

sovg‘ani berish chog‘ida sovg‘a berish uchun sabab bo‘lgan voqea-hodisa aniq bayon etiladi;

sovg‘aning umumiy qiymati (barcha soliq va yig‘imlar bilan birga) bazaviy hisoblash miqdorining 5 (besh) barobaridan oshmasligi lozim;

Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining bir xodimi ikkinchi xodimga sovg‘a olish uchun sarflaydigan summa miqdori har holatda

bazaviy hisoblash miqdorining 1 (bir) barobaridan oshmasligi lozim.

15. Shubha (gumon)lardan holi bo'lish uchun har qanday bayramlar (jumladan, lekin cheklanmagan holda tug'ilgan kun, farzand tug'ilishi, Vatan himoyachilari kuni, Xalqaro xotin-qizlar kuni, Yangi yil va h.k) munosabati bilan mazkur Siyosatning 13 va 14-bandlarida keltirib o'tilmagan boshqa davlat organlari va tashkilotlari xodimlari, hamkorlar va kontragentlar, boshqa jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan mazkur Siyosatning 13-bandida sanab o'tilgan sovg'alar va moddiy boyliklar olish taqiqlanadi.

16. Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari nomidan xalqaro konferensiyalar, simpoziumlar va boshqa ish yuzasidan (xizmat) uchrashuvlarida sovg'alar berish rahbar buyrug'iga ko'ra muvofiq amalga oshiriladi.

17. Sovg'a berish, uni qabul qilishning qonuniyligida shubha tug'ilgan taqdirda Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari xodimi Qo'mitada Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat bo'limiga maslahat so'rab murojaat qilishi lozim.

### **3-§. Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari xodimlarining ish faoliyati yuzasidan o'tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etishi**

18. Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari xodimlarining xalqaro va boshqa tashkilotlar taklifiga ko'ra ish faoliyati yuzasidan o'tkaziladigan tadbirlari (ko'rgazmalar, seminarlar, konferensiyalar va h.k.)da ishtirok etishiga quyidagi shartlarga rioya qilgan taqdirda ruxsat etiladi:

tadbir O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, mazkur Siyosat tamoyillari va talablari hamda Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarining boshqa ichki hujjatlariga mos kelsa;

tadbir Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari yoki taklif etgan tomonning qonuniy manfaatlariga xizmat qilsa;

tadbir Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari xodimlari tomonidan u yoki bu qarorlar qabul qilinishiga ta'sir qilmasligi, biror-bir noqonuniy afzalliklarni qo'lga kiritishni (masalan, buyurtmachilarga tadbirni o'tkazayotgan loyiha-tadqiqot tashkilotiga murojaat qilishni tavsiya qilish) ko'zlagan yashirin noqonuniy mukofotlash maqsadi bo'lmasligi lozim;

Tadbir bunday tadbirda ishtirok etishga doir ma'lumotlar oshkor qilingan taqdirda Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari va taklifni qabul qiluvchi yoki taklif etayotgan tomon mavqe uchun xatar tug'dirmasligi lozim;

Tadbir umum e'tirof etilgan ilmiy va ishbilarmonlik amaliyotiga mos kelishi hamda ko'ngilochar mazmundagi xususiyat kasb etmasligi lozim;

Tadbir mohiyati va qiymatiga ko'ra o'rinli bo'lishi, haddan ziyod hashamatli, qimmat, g'ayri odatiy bo'lmasligi va tez-tez takrorlanib turmasligi lozim.

19. Agar ishbilarmonlik tadbirlari (seminar, simpozium, davra suhbatlari va h.k.) tashkilotchisi Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari o‘zi bo‘lsa, u holda bunday ishbilarmonlik tadbiri ushbu siyosatda qayd etilgan talablarga mos kelishi lozim.

#### **4-§. Kadrlar bilan bog‘liq jarayonni tartibga solish (xodimlarni tanlash, lavozimini oshirish, moddiy rag‘batlantirish)**

20. Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari xodimlarini tanlash, attestatsiyadan o‘tkazish va ularning faoliyatini baholash, jumladan mukofot, ustamalar va rag‘batlantirishning boshqa turlarini amalga oshirish jarayoni barcha xodimlar uchun shaffof, teng huquqli va xolis hisoblanib, mazkur Siyosatning asosiy tamoyillari va talablariga mos kelishi lozim.

21. Nomzodlarni Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlariga tanlash va tayinlash jarayoni Nomzodlarni tashkilotga qabul qilish uchun tekshirish bo‘yicha qo‘llanma va Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining boshqa ichki hujjatlariga, manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish tartibiga muvofiq kompleks ravishda tekshirish bilan birga amalga oshiriladi.

22. Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarida xodimlarga oid masalalarda qaror qabul qiluvchi xodimlarning lavozimini oshirganda, lavozimga tayinlanganda, kadrlar zaxirasiga qo‘shganda va hakoazolarda nomzod (xodim)larga har qanday asossiz imtiyozlar taqdim etishi taqiqlanadi.

23. Bo‘sh lavozimlarga saralab olish egallanayotgan lavozimga qo‘yiladigan talablarga muvofiq tanlov asosida yoki boshqa usul yordamida amalga oshirilishi lozim. Bunda nomzodning malakasi, kasbiy va ilmiy yutuqlariga asosiy e‘tibor qaratiladi.

24. Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarida xodimlar faoliyati samaradorligining muhim ko‘rsatkichlarini baholash tartibi va mezonlari ishlab chiqilishi va xodimlar uning asosida rag‘batlantirilishi lozim. Mazkur ko‘rsatkichlar xolis, shaffof va Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari xodimlari tanishib chiqishi uchun ochiq bo‘lishi lozim.

#### **5-§. Tekshiruvlar o‘tkazish va hududiy bo‘linma tizim tashkilotlari faoliyatini o‘rganish**

25. Turli tekshiruvlar, o‘rganishlar, monitoring o‘tkazishda (keyingi o‘rinlarda – tekshiruv ob‘yektlari) Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari xodimlari:

manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishiga yo‘l qo‘ymasligi;  
tekshiruv, o‘rganish, monitoring ob‘yekti tekshiruvi, o‘rganishi, monitoringini yakka o‘zi amalga oshirmasligi;

tekshiruv, o'rganish, monitoring ob'yektiga tashrif buyuruvchilar yoki ularning vakillari tashkilot, uning hududiy va tarkibiy bo'linmalariga shaxsan tashrif buyurganda ular bilan yolg'iz qolmasligi;

yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan qoidabuzarliklarni soxtalashtirish maqsadida tekshiruv, o'rganish o'tkazish, O'zbekiston Respublikasi qonunchilik normalarini noto'g'ri talqin qilmasligi, tekshirilayotgan obyekt xodimlarini aniqlangan faktlarni huquqni muhofaza qilish yoki boshqa davlat organlariga topshirish bilan qo'rqitmasligi;

tekshiruv, o'rganish, monitoring ob'ekti xodimlariga tahdid qilmasligi;

hujjatlarni so'rab olish va tekshiruv, o'rganish, monitoring predmetiga kirmaydigan masalalar bilan qiziqmasligi lozim;

tekshiruv, o'rganish, monitoring davomida aniqlangan har bir qoidabuzarlikning qonuniy va professional baholanishini ta'minlashi;

qoidabuzarliklarning video yoki foto qaydini amalga oshirishi (o'rni kelganda), Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari tomonidan foydalaniladigan axborot tizimlariga qoidabuzarliklarga oid ma'lumotlarni kiritishi;

agar tekshiruv, o'rganish, monitoring ob'yekti vakillari Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari xodimiga aniqlangan qoidabuzarliklarni yashirish maqsadida pora yoki har qanday moddiy boyliklar yoki xizmatlar taqdim etayotgan bo'lsa, bu haqida tekshiruv bo'yicha ishchi guruh rahbariga va Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlaridagi korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat tuzilmasiga zudlik bilan xabar berishi;

tekshiruv, o'rganish, monitoring ob'yekti vakillariga Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari xodimlarining xulq-atvor tamoyillariga muvofiq xolis munosabatda bo'lishi shart.

26. Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari tomonidan o'tkazilgan tekshiruvlar, o'rganishlar va monitoring natijalari yuzasidan kelib tushgan e'tirozlarni ko'rib chiqish uchun komissiya tashkil etiladi.

## **6-§. Vakolatli davlat organlari, kontragentlar va uchinchi shaxslar bilan shaffof va samarali o'zaro hamkorlikni ta'minlash**

27. Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarimazkur Siyosat tamoyillari va talablari hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchilik normalariga zid har qanday to'lovlarni yoki harakatlarni amalga oshirish uchun yetkazib beruvchilar, pudratchilar va boshqa uchinchi shaxslarni jalb qilmaydi.

28. Kontragentlar bilan munosabatlarda Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari qonuniylik va shaffoflik tamoyillariga amal qiladi.

29. Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarida ob'yektiv mezonlardan foydalanishga asoslangan yetkazib beruvchilar, pudratchilar va boshqa

kontragentlarni tanlashning halol, ochiq va shaffof jarayoni, shuningdek sotib olinayotgan tovar va xizmatlar qiymatini belgilashning shaffof tartibi joriy etilib, ular O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining ichki hujjatlari bilan tartibga solinadi.

30. Kontragentlar bilan o‘zaro hamkorlikda Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari:

Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarida kontragentlarni tekshirish bo‘yicha yo‘riqnoma va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq potensial kontragentning ishonchliligi, jumladan u o‘tmishda korrupsiyaviy faoliyatga jalb qilingan yoki qilinmaganligi, Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari xodimlari bilan manfaatlar to‘qnashuvi mavjud yoki mavjud emasligini tekshiradi;

potensial kontragent, jumladan xarid tartib-taomillari g‘olibini u bilan shartnoma matniga maxsus korrupsiyaga qarshi shartlarni qo‘shish orqali o‘zining korrupsiyaga qarshi tamoyil va talablari haqida xabardor qiladi.

31. Vakolatli davlat organlari bilan o‘zaro hamkorlik qilishda (masalan, litsenziya berish, ixtisoslashtirilgan kengashlarda ishtirok etish, turli hujjatlar, obyektlarni kelishishda va h.k) Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari hujjatlarni ko‘rib chiqishning shaffofligi va xolisligini ta‘minlaydi hamda zarur hollarda mazkur davlat organlari tomonidan salbiy va boshqa xulosalarga kelish sabablari xususida qo‘shimcha ma‘lumotlarni talab qiladi.

## **7-§. Xayriya va homiylik faoliyatining shaffof va samarali jarayonini ta‘minlash**

32. Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari qonunchilik bilan belgilangan holatlarda xayriya va homiylik yordamini qabul qilishi mumkin. Bunday yordamni olishda manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik, mablag‘larni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi yoki shartnomada ko‘rsatilgan maqsadlarga samarali va maqsadli yo‘naltirilishini ta‘minlash, shuningdek xayriya va homiylik faoliyatiga doir axborotni Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining Internet tarmog‘idagi rasmiy veb-saytida ochiqlash bo‘yicha barcha chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

33. Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari tomonidan qabul qilinayotgan xayriya yoki homiylik yordami yashirin mukofot tarzida bo‘lmasligi va Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining alohida xodimlari tomonidan xayriya qiluvchi yoki homiy, uning yaqin qarindoshlari, ularga aloqador shaxslar, shuningdek xayriya qiluvchi yoki homiyda ularga nisbatan shaxsiy manfaatdorligi bo‘lgan shaxslar foydasiga qaror qabul

qilinishiga ta'sir ko'rsatmasligi lozim.

34. Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari tomonidan xayriya yoki homiylik yordamini olishda quyidagi talablar bajarilishi lozim:

xayriya qiluvchi yoki homiy bilan albatta shartnoma tuzish va unda xayriya yoki homiylik yordamini olish va undan foydalanish maqsadlari, yordam shakllari, yordamning pul ifodasidagi summasi, xayriya qiluvchi yoki homiy oldida kelib tushgan yordamdan maqsadli foydalanish to'g'risida hisob berish usuli belgilab qo'yilishi lozim;

bunday shartnomaga korrupsiyaga qarshi shartlarni kiritish;

Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarining Internet tarmog'idagi rasmiy veb-saytida olingan xayriya yoki homiylik yordamiga doir axborotni joylashtirish.

### **8-§ Ichki hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasi**

35. Ichki hujjatlarning huquqiy ekspertizasini o'tkazishda Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarining yuridik xizmati korrupsiyaviy harakatlarni amalga oshirish uchun imkoniyat yaratuvchi korrupsiyaviy omillar mavjudligi va ularni hujjatlardan chiqarib tashlash maqsadida ekspertiza o'tkazadi.

### **9-§ Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari faoliyati sohasiga yangi texnologiyalarni joriy etish**

36. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish maqsadida Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari xodimlari o'z funksiyalari va lavozim majburiyatlarini axborot texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshiradi (agar imkoni mavjud bo'lsa).

37. Davlat xaridlari doirasida tanlov savdolarini o'tkazishda Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari xodimlari axborot texnologiyalaridan foydalanadi va tanlov savdolari ishtirokchilari bilan o'zaro aloqani elektron shaklda onlayn rejimida boshqa elektron tizimlar bilan integratsiya qilish imkoniyatini qo'llagan holda amalga oshiradi.

### **10-§ Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlaridagi faoliyatni video qayd qilish va uning translatsiyasi**

38. Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari binolarida xodimlar faoliyatini nazorat qilish maqsadida audio va videoyozuv kameralari o'rnatilib, ulardagi yozuvlar Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarining mas'ul xodimlari tomonidan ko'rib boriladi.

39. Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarining Internet tarmog'idagi rasmiy saytlarida korrupsiya xavf-xatari yuqori bo'lgan ayrim

jarayonlarning onlayn translatsiyasi joylashtiriladi (xususan, xodimlar bilan suhbat o'tkazish, ularni testdan o'tkazish, komissiyalar yig'ilishlari va h.k.).

#### **4 bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi elementlari**

##### **1-§ Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha muhim ichki hujjatlar mavjudligi**

40. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi asosini:

mazkur Siyosat;

Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari xodimlarining odob-axloq qoidalari;

Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish tartibi to'g'risidagi Nizomda aks ettirilgan tamoyillar va talablar tashkil etadi.

41. Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari rahbarlari xodimlarga oliy rahbarlik namunasini ko'rsatishi lozim.

42. Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari raisi va uning o'rinbosarlari, shuningdek tashkilot tarkibiy bo'linmalari rahbarlari o'ziga bo'ysunuvchilar, fuqarolar va yuridik shaxslarga nisbatan munosabatlarda halol, odil va mustaqil xulq-atvor namunasi bo'lishi va shu orqali ularda korrupsiyaviy harakatlarga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

43. Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari raisi va ularning o'rinbosarlari, shuningdek tashkilot tarkibiy bo'linmalari rahbarlari Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari faoliyatining xavf-xatar funksiyalari (yo'nalishlari)ga korrupsiyaga qarshi samarali chora-tadbirlar va tartib-taomillarni joriy etish orqali korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali tizimini barpo etish va amalga oshirishga nisbatan liderlikni namoyish qiladi.

##### **2-§. Korrupsiyaviy xavf-xatarni aniqlash va baholash**

44. Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari o'z faoliyatiga xos korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashni tashkiliy tuzilmalar funksiyalarining xususiyati, jamiyat va boshqa shaxslar bilan o'zaro munosabatlar, shuningdek, Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyotiga muvofiq tashqi va ichki omillarni hisobga olgan holda amalda oshiradi.

45. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash bir yilda bir martadan kam bo'lmagan vaqtda o'tkaziladi. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijalari Tashkilotning rahbari tomonidan ko'rib chiqiladi. Aniqlangan xavf-xatarlarni minimallashtiruvchi korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlar va tartib-taomillar Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarining

korrupsiyaga qarshi dastur yoki yo‘l xaritalarida aks ettiriladi.

### **3-§. Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas’ul**

46. Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali tizimini shakllantirish uchun alohida Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat bo‘limi tashkil etiladi.

47. Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarida Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat bo‘limi o‘z faoliyatini Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat bo‘limi to‘g‘risidagi nizom asosida amalga oshiradi va bevosita Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari raisiga (Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari hay’atiga) bo‘ysunadi.

48. Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari raisi Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat bo‘limini korrupsiyaga qarshi vazifalarni amalga oshirish uchun yetarli darajadagi mustaqillik va zarur resurslar bilan ta’minlaydi.

49. Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari kadrlar bo‘limi Qo‘mitada manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi nizom, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi normalarida ko‘zda tutilgan tartib va hajmda xodimlarning yaqin qarindoshlari va ularga aloqador shaxslarga doir ma’lumotlarning tizimli va o‘z vaqtida yig‘ilishi, tahlil qilinishi va aktuallashtirilishi uchun javob beradi.

50. Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining barcha muassasalarida alohida Odob-axloq komissiyalari faoliyat yuritadi.

51. Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlaridagi Odob-axloq komissiyalari Qo‘mitadagi xodimlarning etik xulq-atvor qoidalari bilan belgilangan xulq-atvor me’yorlariga rioya qilish masalalarini ko‘rib chiqadi, shuningdek Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi nizomda belgilangan tartibda manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq vaziyatlarni tartibga solish jarayonida ishtirok etadi.

### **4-§ Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi siyosati to‘g‘risida xodimlar va uchinchi shaxslarning xabardorligini ta’minlash**

52. Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari korrupsiyaviy xavf-xatarlarni qisqartirish va jamiyat xabardorligini oshirish maqsadida mazkur Siyosat va o‘zlari tomonidan amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarga oid asosiy axborotlarni rasmiy veb-saytlarida joylashtiradi.

53. Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari barcha kuch va

imkoniyatlarini xodimlari va boshqa manfaatdor shaxslarga quyidagilar orqali O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi qonunchiligi normalari, shuningdek joriy etilgan korrupsiyaga qarshi tamoyillar, chora-tadbirlar va talablar to'g'risida xabar berish va ularni tushuntirishga sarflaydi:

Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari rahbariyati tomonidan elektron manzil va boshqa aloqa vositasi orqali xodimlar tomonidan korrupsiyaga qarshi qabul qilingan normalar va talablarga rioya qilinishi muhim ekanligiga doir doimiy xabarlar yuborish;

Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha o'qitishga doir rejaga muvofiq korrupsiyaga qarshi kurashish asoslari bo'yicha muntazam va tizimli ravishda bir yilda kamida bir marta o'qitilishi hamda testdan o'tkazilishini ta'minlash;

Yangi xodimlarni ishga qabul qilayotganda ushbu Siyosat va Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashishga doir boshqa ichki hujjatlari bilan albatta tanishtirgan holda, ular uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha majburiy kurslarni tashkil etish;

Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlaridagi korrupsiya xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlar uchun korrupsiyaga qarshi o'qitishning qo'shimcha dasturlari belgilanadi. O'tkazilgan o'quv kurslari/treninglarga oid ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda Qo'mitaning Kadrlar bo'limida saqlanadi;

mavzuga doir audio va videoroliklar hamda Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari xodimlari va fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashish va ularda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi xabardorligini oshirishga qaratilgan boshqa axborot materiallaridan foydalangan holda korrupsiyaga qarshi kampaniyalar tashkil qilish;

mazkur Siyosat qoidalarini qo'llash yoki korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar va tartib-taomillarni amalga oshirish bilan bog'liq savollar tug'ilganda, Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi tomonidan Qo'mita xodimlariga maslahatlar berish;

tasdiqlangan reja asosida Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi tomonidan Qo'mitada korrupsiyaga qarshi xulq-atvorni faol tarzda targ'ib qilish;

Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari xodimlari mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi qoidalarini kiritish. Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari mazkur Siyosat kuchga kirgan vaqtdan boshlab Qo'mitaning yangi xodimlari bilan tuziladigan, shuningdek shartlarni qayta ko'rib chiqish doirasida xodimlarning amaldagi mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi qoidalarini kiritadi;

Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari kontragentlari, hamkorlari, xayriya qiluvchilari, homiylari bilan tuziladigan shartnomalarga korrupsiyaga qarshi shartlarni kiritish. Korrupsiyaga qarshi shartlar mazkur Siyosat kuchga kirgan vaqtdan boshlab Tashkilotning yangi kontragentlari, hamkorlari, xayriya qiluvchilari, homiylari bilan tuziladigan shartnomalarga kiritiladi. Korrupsiyaga qarshi shartlar Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining barcha shartnomalariga kiritiladi (elektron do‘kon, elektron auksion orqali xarid natijalari bo‘yicha va davlat tabiiy monopoliyalari (pochta, elektr energiyasi, gaz ta‘minoti, suv ta‘minoti, temir yo‘llari, havo yo‘llari va h.k.) bilan tuziladigan shartnomalar bundan mustasno). Korrupsiyaga qarshi shartlar mazkur Siyosat qabul qilinishidan oldin tuzilgan shartnomalarga shartlarni qayta ko‘rib chiqish doirasida yoki tashabbusga ko‘ra kiritiladi.

### **5-§ Monitoring, nazorat va hisobdorlik**

54. Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas‘ul Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarida amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning doimiy monitoringi, nazorati va ularning samaradorligi, yetarliligi va mutanosibligini baholanishini amalga oshiradi. O‘tkazilgan monitoring natijalariga ko‘ra Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini shakllantirishga doir tegishli chora-tadbirlar qabul qilinadi.

55. Monitoring va nazorat Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarida Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyotiga hamda Qo‘mitaning boshqa ichki hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

56. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi monitoringi quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirilishi lozim:

Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari faoliyati funksiyalari va o‘ziga xos jihatlari, uning tashkiliy-funksional tuzilmasi hamda boshqa tashqi va ichki omillaridagi o‘zgarishlarning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi va uni to‘g‘irlash zarurati, jumladan uning O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiqligini ta‘minlashga ta‘siri tahlili;

O‘zbekiston Respublikasining faoliyatida qo‘llaniladigan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchiligi va hokimiyat organlari tavsiyalarining monitoringi;

xalqaro va xorijiy tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha samarali tizimini yaratish va qo‘llab-quvvatlash masalalariga doir tavsiyalari monitoringi;

ommaviy axborot vositalarining Qo‘mita, uning hududiy bo‘linmalari va

tizim tashkilotlari yoki xodimlari korrupsiyaviy harakatlarga jalb qilinganligi to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek kontragentlari yoki hamkorlari to'g'risida xuddi shunday ma'lumotlar mavjudligi yuzasidan monitoring;

samarasiz nazoratlar va tartib-taomillarni aniqlash uchun ularni takomillashtirish hamda korrupsiyaga qarshi tizim ishonchliligi va samaradorligini ta'minlash maqsadida tanlov asosida Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarining ichki jarayonlari va funksiyalarini monitoring qilish;

Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi dasturi yoki yo'l xaritasi bandlari bajarilishining to'liqligi va samaradorligini monitoring qilish;

Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari xodimlari tomonidan qabul qilingan korrupsiyaga qarshi talablar va joriy etilgan tartib-taomillarga rioya qilinishini tekshirish;

Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari xodimlarining korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyillar va talablar to'g'risida xabardorligini tekshirish;

57. Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligi (korrupsiyaviy xavf-xatarlar mavjud emasligi) korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini ichki auditini o'tkazish, jumladan Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarida belgilangan talablar va tartib-taomillarga rioya etilishini nazorat qilish orqali tekshiriladi.

58. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini monitoring va nazorat qilish tadbirlari yakunlari va natijalari korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati haqidagi hisobotlarida aks ettiriladi. Hisobotlarni shakllantirish va taqdim etish tartibi Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati haqidagi hisobotlarini shakllantirish va taqdim etish bo'yicha ichki idoraviy hujjatda mustahkamlab qo'yiladi.

## **6-§. Javobgarlik**

59. Mazkur Siyosatga mos kelish va Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi talablari va tartib-taomillariga rioya qilish har bir xodimning o'z lavozim majburiyatlarini bajarish doirasidagi majburiyati hisoblanadi. Xodimlar mazkur Siyosat va Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarining boshqa ichki hujjatlarida belgilab qo'yilgan korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga oid talablar va tartib-taomillarni buzganligi uchun shaxsan javobgar bo'ladi.

60. Korrupsiyaga nisbatan murossasizlik (toqatsizlik) tamoyiliga amal qilgan holda Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarining barcha xodimlariga bevosita yoki bilvosita, shaxsan yoki vositachilar orqali har qanday

korrupsiyaviy harakatlarda ishtirok etish qat'iyan man etiladi, ya'ni:

o'z mansab va xizmat mavqeidan noqonuniy foydalanish, shuningdek xizmat mavqe va vakolatlarini suiiste'mol qilish maqsadida har qanday shaxslardan noqonuniy foyda talab qilish, so'rab olish yoki so'rash, olishga rozilik berish yoki olish, shuningdek xodim tomonidan o'z lavozim mavqeidan Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarining qonuniy manfaatlariga zid ravishda, jumladan o'zi va uchinchi shaxslar uchun noqonuniy foyda olish maqsadida noqonuniy foydalanish;

davlatning mansabdor shaxsi yoki boshqa har qanday shaxsga uning harakatlariga ta'sir o'tkazish (harakatsizligini ta'minlash) va/yoki shaxs, jumladan Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari manfaatlarini yo'lida noqonuniy afzalliklarni qo'lga kiritish maqsadida lavozim majburiyatlarini noqonuniy tarzda bajarishga undash, noqonuniy foyda (pora, poraxo'rlik) ni taklif qilish, va'da berish, bunga ijozat berish, taqdim etish;

rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar undirish, olish yoki amalga oshirish;

poraxo'rlik yoki tijoriy poraga olishda vositachilik qilish, jumladan pora oluvchiga noqonuniy foydani topshirish yoki pora oluvchi yoki beruvchiga ular o'rtasida noqonuniy foydani olish va berish bo'yicha kelishuvga erishishda yordam berish;

Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari xodimlarining korrupsiya belgilari mavjud bo'lgan yoki uni sodir etish, jumladan manfaatlar to'qnashuvi holatlari yuzaga kelishiga xizmat qiluvchi boshqa harakatlari yoki harakatsizligi.

61. Xodimlar o'z rahbari va Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullariga ularni korrupsiyaviy harakatlarini sodir etishga undash maqsadida murojaat qilgan shaxslar bilan bog'liq, shuningdek ularga ma'lum bo'lgan boshqa xodimlar tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy harakatlarga oid barcha holatlar to'g'risida xabar berishi lozim.

62. Korrupsiyaga nisbatan murosasizlik (toqatsizlik) tamoyilini hisobga olgan holda Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarida xodimlar tomonidan korrupsiyaviy harakatlar sodir etilganligiga doir har bir asosli gumon bo'yicha Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarida xizmat tekshiruvlarini o'tkazish bo'yicha reglament va boshqa ichki hujjatlarda ko'zda tutilgan tartibda hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq xizmat tekshiruvi o'tkaziladi.

63. Mazkur Siyosat, korrupsiyaga qarshi qonunchilik talablari va/yoki Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarining boshqa ichki

hujjatlarida mustahkamlab qo'yilgan korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-  
taomillarni buzgan Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari  
xodimlari lavozimi, xizmat muddati va boshqa omillardan qat'iy nazar O'zbekiston  
Respublikasi qonunchiligi hamda ichki hujjatlari doirasida va ularda ko'zda tutilgan  
asoslar bo'yicha javobgarlikka tortiladi.

64. Korrupsiyaviy harakatlar aniqlangan taqdirda Korrupsiyaga qarshi  
kurashish bo'yicha tuzilma ularni yuzaga kelish sabablari va imkoniyatlarini tahlil  
qiladi va doimiy ravishda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtiradi.

65. Ichki tekshiruvlar natijalari doimiy ravishda rahbarga, Qo'mita, uning  
hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari hay'ati va Qo'mitaning tegishli tarkibiy  
bo'linmalari rahbarlariga taqdim etiladi.

66. Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari korrupsiyaviy  
huquqbuzarliklarni aniqlash va tergov qilish uchun huquqni muhofaza qilish va  
boshqa davlat organlari bilan hamkorlik qiladi.

## **5 bob. Korrupsiyaviy harakatlarga doir xabarlar**

67. Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari xodimlarining  
harakatlari qonuniyligi yoki etikaga mosligi yuzasidan shubha, korrupsiyaviy  
harakatlar yoki boshqa qoidabuzarliklar bilan bog'liq taxminlar yoki sodir  
etilganligiga oid asosli gumonlar yuzaga kelgan taqdirda ular haqida Qo'mita, uning  
hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarining umum foydalanuvidagi aloqa  
kanallari orqali ochiq xabar berilishi mumkin.

68. Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari o'z vakolatlari  
va mavjud imkoniyatlari doirasida qoidabuzarlikka oid asosli axborotni taqdim  
etgan shaxsga doir ma'lumotlar maxfiyligini ta'minlaydi, O'zbekiston Respublikasi  
qonunchiligida ko'zda tutilgan holatlar bundan mustasno.

69. Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari o'z xodimlari  
manfaatlarini himoya qiladi va boshqa xodimlarning shubhali xulq-atvori yoki  
mazkur Siyosatning korrupsiyaga qarshi kurashish talablari buzilgan bo'lishi  
mumkinligi haqida vijdonan xabar bergan xodimlarga nisbatan ishdan bo'shatish,  
lavozimini tushirish, diskriminatsiya, zulm o'tkazish, ta'qib qilish singari o'ch olish  
harakatlariga yo'l qo'yilmasligini kafolatlaydi.

70. Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarining aloqa  
kanallari orqali kelib tushgan barcha xabarlar Qo'mita mas'ul shaxslari tomonidan  
O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va  
tizim tashkilotlaridagi korrupsiyaviy harakatlar to'g'risida xabar berishga  
mo'ljallangan aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ularni  
ko'rib chiqishga oid ichki hujjatlar va Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim  
tashkilotlarining boshqa ichki hujjatlariga muvofiq o'z vaqtida va xolisona ko'rib

chiqiladi.

71. Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari xodimlari tomonidan ataylab yolg'on xabar yuborish mazkur Siyosat talablarini buzish va etikaga zid xulq-atvor namunasi sifatida baholanadi, bu haqida xabar bergan shaxs esa o'z navbatida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarining ichki hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortilishi mumkin.

### **6 bob. Qayta ko'rib chiqish va o'zgarishlar kiritish tartibi**

72. Mazkur Siyosat quyidagi hollarda qayta ko'rib chiqilishi va to'g'irlanishi mumkin:

mavjud korrupsiyaga qarshi siyosatlar va tartib-taomillarni qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltiruvchi O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi qonunchiligi o'zgarganda;

samarasiz korrupsiyaga qarshi nazorat tadbirlari va tartib-taomillari aniqlanganda, shuningdek Tashkilot faoliyatida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni takomillashtirish zarurati yuzaga kelganda;

Qo'mita, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarining tashkiliy tuzilmasi va/yoki funksiyalarining o'ziga xos jihatlari o'zgarganda va boshqa xollarda.